

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 2 (4)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES

Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик

Ўзбекистон Миллий университети

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Нарбеков Абдикамил Вафаевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор
Тошкент халқаро Кимё университети

Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Нормуродов Дильмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Усаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Адилов Аброр Анварович СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ИЛК ДАВРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ДИНИЙ СИЁСАТИДАГИ ВАКФ МАСАЛАСИ	4
2. Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI	20
3. Бахранов Шерзад Таштурсунович., Сирлиев Эркин Назарович ИЗ ИСТОРИИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РУССКО-СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ТОРГОВЛЕ	34
4. Замонов Акбар Тургинович ШАЙБОНИЙ АБДУЛЛАХОН ШАХСИЯТИ ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	45
5. Qodirova Ra'no Mamirjonovna O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINI O'QITILISHI	60
6. Maxmudova Muazzamxon Sultonmaxmudovna TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI MASALALARINI ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MANBALARIDA YORITILISHI	70
7. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ ХУСУСИДА	79
8. Рахманова Одинахон Равшанбековна САММАРСКИЙ ПЕРИОД ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЕ ХАЛИФОВ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА	93
9. Сиддиков Равшан Бердимуратович ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	101
10. Примов Мухиддин Омонович ЎЗБЕКИСТОНДА КАРТОГРАФИЯ МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ОЧИЛИШИ ВА КАРТОГРАФ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР	118
11. Hakimova Shoiri Sag'dullayevna O'ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJY SARMOYALARNING JALB ETILISHI	135
12. Hakimova Saida Baxtiyorovna O'TOSHKENT BEKLIGI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA	150
13. Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYOHAT	156
14. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИГА СОВЕТ МАФКУРАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЯНГИЧА УРФ ОДАТЛАРНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	162

Xakimova Sh. S.

PhD., dotsent v.b.

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

shoirasagdullayevna@mail.ru

O‘ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJIY SARMOYALARNING JALB ETILISHI

ANNOTATSIYA

Energetika respublika xalq xo‘jaligining negiz tarmog‘i, iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. Fan-texnika rivojlangan davrda xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlarining elektrlashtirilishi elektroenergetika tamog‘iga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Maqolada O‘zbekistonda 2016-yilgacha elektroenergetika sohasini rivojlantirish maqsadida xorijiy sarmoyalarning jalb etilishi tog‘risida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: elektr, energetika, investitsiya, O‘zbekenergo, bug‘-gaz qurilmasi, modernizatsiya, xorijiy investitsiya, sarmoya.

Хакимова Ш. С.

Д.ф.и.н (PhD) доцент

Университет точных и социальных наук

shoirasagdullayevna@mail.ru

ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКУ УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Энергетика является основной отраслью народного хозяйства республики, прочной основой экономического и технического развития. В эпоху передовой науки и техники электрификация всех отраслей народного хозяйства увеличивает потребность в электроэнергии. В статье представлена информация о привлечении иностранных инвестиций для развития электроэнергетического комплекса Узбекистана до 2016 года.

Ключевые слова: электроэнергия, energetika, инвестиции, Узбекэнерго, парогазовая установка, модернизация, иностранные инвестиции, инвестиции.

Khakimova Sh. S.

PhD., Doctor of Philosophy.

University of Exact and Social Sciences

shoirasagdullayevna@mail.ru

ATTRACTION OF FOREIGN INVESTMENTS IN THE ELECTRIC ENERGY INDUSTRY OF UZBEKISTAN ABSTRACT

Energy is the main branch of the republic's national economy, a solid foundation of economic and technical development. In the era of advanced science and technology, the electrification of all sectors of the national economy is increasing the need for the electric power industry. The article provides information on the attraction of foreign investments for the development of the electric power sector in Uzbekistan until 2016.

Key words: electricity, energy, Uzbekenergo, steam-gas plant, modernization, foreign investment, investment.

KIRISH

Jahonda elektr energetika sanoati iqtisodiyotning asosiy tizimini rivojlantiruvchi sohaga aylandi. Shu sababli dunyoda energiyaga bo'lgan talab ortayotgan bugungi kunda qayta tiklanmaydigan resurslarni tejash, sanoat korxonalari va muntazam o'sib borayotgan aholini arzon, ekologik toza elektr bilan uzluksiz ta'minlashda muqobil energiya manbalaridan foydalanish zaruriyati tobora ortmoqda. Xalqaro qayta tiklanadigan energiya agentligi (IRENA) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida quyosh energiyasidan foydalanishga o'tilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O'zbekistonning energetika siyosati mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash hamda milliy energetika imkoniyatlaridan jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini hal etish uchun foydalanishga qaratib kelinmoqda. Jahonning bir qancha davlatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham elektr energiyaga bo'lgan talab kun sayin ortib, iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining muttasil o'sib borishi energiya resurslariga bo'lgan

ehtiyojning tobora ortib borishiga olib kelmoqda. Bunda iqtisodiyot tarmoqlari va aholini uzluksiz, arzon hamda ekologik toza energiya bilan ta'minlash mamlakatimiz energetika siyosatining eng muhim vazifalaridan biridir. Respublikamiz hududlarida bu sohani bir maromda rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

Respublikada elektr energetikasi samaradorligini, ishlab chiqarish quvvati va sifatini oshirish, yirik investitsiyalarni jalb qilish, iste'molchilarga xizmatlarni yaxshilash sohaga tez hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarga aylandi.

O'zbekiston elektroenergetika sanoati tarixi asosan texnik, iqtisodiyotchi, geografik va huquqshunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda elektroenergetika sanoati yoritilishi bilan bir qatorda soha tarixiga ham to'xtalib o'tilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Bugungi globallashuv jarayonida investitsion faoliyat har bir davlat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega element hisoblanadi. Chunki, investitsiya mamlakatda sanoat ishlab chiqarish darajasini kengaytirishga va rivojlantirishga, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Mamlakatning iqtisodiy faoliyati asosan investitsiyalar hajmi va shakllari bilan tavsiflanadi.

Bu borada so'z ketganda birinchi Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash lozim: "Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, nechog'lik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu avvalombor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir – oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni yechish demakdir"[1].

1990-yillarning oxiridan 2000-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davr yangi boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi, turli energetika tarmoqlariga mahalliy va xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi bilan tavsiflandi[2].

1993-yildayoq YeTTB va Energetika vazirligi mutaxassisleri tomonidan “Sirdaryo GRESini rekonstruktsiya qilish” loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning dastlabki qiymati 115 mln dollarni, bitta blokni rekonstruktsiya qilish qiymati taxminan 11,5 mln dollarni tashkil etdi. YeTTB bilan olib borilgan muzokaralardan so‘ng 6 ta blokni rekonstruktsiya qilish uchun 89,310 mln dollar miqdorida kredit belgilandi. 2 ta turbinani rekonstruktsiya qilishning 1-bosqichi uchun 29,77 mln dollari ajratildi.

Rekonstruktsiya natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarishga sarflanadigan yoqilg‘ining solishtirma sarfini kamaytirish hisobiga 13-15 foizga tejamkorlikka erishildi[3].

1995-yildan boshlab O‘zbekistonda issiqlik-energetika kompleksini rivojlantirish maqsadida yirik ko‘lamli investitsion ishlar amalga oshirilib kelindi[4]. Sanoatni modernizatsiya qilish, zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va imtiyozli kreditlar jalb etish maqsadida O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorliklar olib bordi[5]. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Janubiy Koriya, Xitoy, Yaponiya taraqqiyot banklari singari moliya institutlari[6] bilan investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Elektr energiyasini hosil qiluvchi quvvatlarni oshirish, magistral va taqsimlash elektr uzatish liniyalarini rekonstruktsiya qilish bo‘yicha “O‘zbekenergo” DAK tomonidan ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, qabul qilingan dasturlar asosida bir qator istiqbolli loyihalar, chora-tadbirlar, xalqaro kredit institutlarining mablag‘larini jalb etgan holda qator investitsion loyihalar amalga oshirdi[7].

O‘rganilayotgan davrda “O‘zbekenergo” DAK elektr energetikasini rivojlantirishning uchta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha faol ishlar olib bordi:

- Elektr inshootlarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish elektr stansiyalarining eskirgan uskunalarini modernizatsiya qilishni, elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun o‘ziga xos yoqilg‘i sarfini kamaytirishni, texnologik uskunalarni ta‘mirlash va almashtirishni,

turbinalarni rekonstruksiya qilish, issiqlik elektr stansiyalarida qozon agregatlari, yoqilg‘i ta’minoti tizimlari va boshqa ishlar joriy etishni ta’minladi.

- Elektr tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va yanada rivojlantirish uzatish sxemasining moslashuvchanligi va elektr yo‘qotishlarini kamaytirish, magistral va tarqatish tarmoqlarining optimal konfiguratsiyasini shakllantirishni ta’minladi.

- Ishlab chiqarish quvvatini oshirishning yangi manbalarini qurish va energiya ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish energiya iste’moli o‘shishi ehtiyojlarini qondirish, energiya ob’ektlarining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishda muhim o‘rin tutdi.

2000-yilning dekabrda O‘zbekiston hukumati tomonidan “2001–2010- yillarda respublika energetikasida energiyani hosil qiluvchi quvvatlarni rivojlantirish va qayta qurish rejasi” tasdiqlandi.

Reja bo‘yicha Sirdaryo, Toshkent, Navoiy IESlarini, Toshkent va Muborak IEMlarini yangilash va qayta qurish, jumladan, bug‘-gaz va gaz turbinali qurilmalarini qo‘llash ko‘zda tutildi. Ushbu rejani ijrosi natijasida “O‘zbekenergo” DAK tomonidan bir qancha IESlarida modernizatsiya ishlari amalga oshirdi:

1. 2001 yilda YETTB hisobidan 27,8 mln AQSH dollariga Siemens kompaniyasi bilan Sirdaryo IESning ikkita 7-sonli va 8-sonli energiya bloklari qurilishining birinchi bosqichi amalga oshirildi. Energiya blokining samaradorligini oshirish uchun energiya bloki boshqarish tizimi mexanik boshqaruvdan avtomatlashtirilganga o‘tish bilan rekonstruksiya qilindi. Rekonstruksiya natijasida energiya blokining quvvati 300 MVt loyiha quvvatiga yetkazildi[8]. Bloklarni haqiqiy quvvatini 60 MVt.ga oshirish, yoqilg‘ini solishtirma sarfini 40 g/kVt soatgacha pasaytirish yo‘li bilan, energiya bloklarning ishlash samaradorligi oshirildi. Natijada har bir blokning quvvati loyiha qiymatiga yetkazildi, ya’ni har yili 49 ming tonna shartli yoqilg‘idan ortiq yoqilg‘i-energetika iqtisod qililib, 60 MVt.ga ortdi.

2. O‘zbekiston Respublikasi hukumati va JBIC o‘rtasida 2002-yilda Toshkent IESni modernizatsiya qilish borasida kelishuv imzolandi. Kelishuvga ko‘ra Yaponiya hukumati 24,955 mln yapon iyenasi miqdorida imtiyozli kredit ajratdi.

Loyihada Toshkent IESda quvvati 370 MVt va issiqlikni 78 Gkal soat aralash ishlab chiqaruvchi bug‘-gaz qurilmasini qurish nazarda tutilgan. Loyiha 2007-yilda yakunlandi. Bug‘-gaz qurilmasini ishga tushirilishi natijasida har yili tabiiy gazni 300 mln m³ hajmida iqtisod qilish ta’minlandi[9].

3. Navoiy IESni modernizatsiya qilish loyihasida quvvati 360 MVt bo‘lgan zamonaviy bug‘-gaz qurilmasini qurish nazarda tutildi. Loyihaning umumiy qiymati 232 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

4. Muborak IESning investitsiya loyihasining maqsadi Muborak IESda umumiy quvvati 106,3 MVt elektr energiyasi va 400 tonna soat bug‘ ishlab chiqarishga mo‘ljallangan 2 ta gaz-trubinali blokni ishga tushirish bilan rekonstruksiya qilish va mavjud quvvatlarini kengaytirishdan iborat bo‘ldi. Loyihaning umumiy qiymati texnik-iqtisodiy asoslash bo‘yicha 103,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

5. Magistral elektr uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilishdan asosiy maqsad Markaziy Osiyo mamlakatlarida elektr energiyasiga bo‘lgan talabni samarali qondirishdan iborat bo‘lgan. Ushbu loyihaga 500 kVt kuchlanishli nimstansiyalar va taqsimlash qurilmalarini qayta tiklash, despatcherlik va aloqa vositalarini modernizatsiya qilish, transchegaraviy hisoblagichlar va ularni boshqarish tizimini o‘rnatish kiritildi. Ushbu loyihaga Osiyo taraqqiyot banki 70 mln dollar, YETTB esa 47,5 mln dollar ajratdi[10].

Shuningdek, 2005-yilda Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida 800 MVt quvvatga ega[11] 1-energoblogining ishga tushirilishi Samarqand-Buxoro energotuguni energiya kuchlanganligini pasaytirishga olib keldi hamda yiliga 320 ming shartli yoqilg‘igacha yoqilg‘i-energetika iqtisod qilindi. Shu bilan birga 1002 MVt.li transformatorlar o‘rnatilgan 500 kVt.li nimstansiya ham ish boshladi[12].

Respublika hukumatining qarorlari bilan import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida “Mahalliy xom-ashyo asosida mahsulot va materiallar ishlab chiqarishni 2005-yilgacha bo‘lgan davrda mahalliyashtirish dasturi”[13] tasdiqlandi. Dasturning asosiy maqsadi ishlab chiqarishni texnologik yangilash va modernizatsiya qilish asosida tarmoqni tarkibiy o‘zgartirish orqali

muvozanatli iqtisodiyotni ta'minlash, sanoat uchun mo'ljallangan mahsulotlar importini kamaytirish, mahalliy xomashyodan mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirishdan iborat bo'lgan. Dasturga muvofiq IES va GESlarning asosiy va yordamchi uskunalari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi[14].

Shuningdek, 2009-yil 12-martda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida" PQ-1072-sonli[15] hamda 2010-yil 15-dekabrda "2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PQ-1442-sonli qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlarda respublika sanoatini, shu jumladan elektr energetikasini rivojlantirishning asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Qarorlar asosida elektr energetika sohasini isloh qilish va modernizatsiya qilishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 14-iyulda qabul qilingan "Tallimarjon IESni 2 ta 450 MVt quvvatli bug'-gaz qurilmasi qurish orqali kengaytirish" investitsiya loyihasini amalga oshirishning ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PQ-1366-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 27-avgustda qabul qilingan "Talimarjon IESda 500 kVt havo liniyasi – Talimarjon IES-PS- "So'g'diyona" 500 kVt havo liniyasi qurilishi" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1609-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 17-oktabrdagi "Sirdaryo IES – Yangi Angren IES larida 500 kVt havo liniyasini qurilishi" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1831-sonli qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 4-fevraldagi "Toshkent IES AJ da kogeneratsion gaz turbinasi texnologiyasini joriy etish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1277-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 5-oktabrdagi “Yuqori samarali kogeneratsion gaz turbinasi texnologiyasini joriy etgan holda Toshkent IESsida energiya samaradorligini oshirish” namunaviy loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1624-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-yanvardagi “Charvoq GES gidrogeneratorlari panellarni almashtirish va modernizatsiya qilish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1692-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagi “Elektr energiya sarfini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasining Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlari iste‘molchilarni hisobga olish tizimi” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1795-sonli qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-noyabrdagi “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “O‘zbekistonda gidroenergetika inshootlarini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirishning ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risida” №316-sonli qarori[16].

Ushbu qarorlarni ijrosini ta‘minlash maqsadida “O‘zbekenergo” DAK tomonidan energiya samaradorligini oshirish va energiya tejash bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarga muvofiq energetika uskunalari texnik qayta jihozlash, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, elektr stansiyalarida o‘rnatilgan quvvatlarni saqlab qolish, investitsiya bo‘yicha loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashni ta‘minlaydigan zamonaviy va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etish kabi ishlarni amalga oshirildi.

Xususan, “Tallimarjon IESni 2 ta 450 MVt quvvatli bug‘-gaz qurilmasi qurish orqali kengaytirish” investitsion loyihasining umumiy qiymati 861,78 mln AQSH dollarga teng bo‘lib, Janubiy Koreyaning Hyundai Engineering and Construction va Daewoo International Consortium kompaniyalari ishtirokida amalga oshirildi.

Osiyo taraqqiyot banki va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi qarz mablag‘lari, shuningdek, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi kreditlari hisobidan moliyalashtirildi.

Yangi bug‘-gaz uskunasi 1 kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi uchun 220–225 gramm shartli yonilg‘i sarfladi. Bu esa 800 MVt quvvatga ega energoblokda odatdagi ko‘rsatkichdan 80–90 gramm kam demakdir. Natijada elektr energiyasi tannarxi sezilarli darajada pasayib, yonilg‘i tejamkorligi esa yiliga 500 million kub metr tabiiy gaz hisobiga kamaydi. Investitsion loyihaning amalga oshirilishi elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini yiliga 7,2 mlrd kVt soatga oshirishga imkon berdi[17].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari Dasturi to‘g‘risida” 2009-yil 12 martdagi PQ-1072-sonli qaroriga[18] muvofiq hamda “O‘zbekenergo” DAK generatsiya quvvatlarini yanada rivojlantirish, respublika energetika tarmog‘iga yangi texnologiyalarni joriy etish va Toshkent shahri iste’molchilarining issiqlik va elektr ta’minoti ishonchliligini oshirish maqsadida “O‘zbekenergo” DAK bilan Yaponiyaning “TOHOKU Electric Power Co., Inc” kompaniyasi o‘rtasida Toshkent IEMda yuksak samarali kogeneratsion gaz turbinasi texnologiyasini joriy etish hisobiga energiya hosil qilishni ko‘paytirish bo‘yicha model loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi hujjat imzolandi. Ushbu loyiha 19,06 mln AQSH dollar ekvivalenti miqdorida “O‘zbekenergo” DAK mablag‘lari, 3,8 mlrd Yaponiya yenasi miqdorida (38,0 mln AQSH dollar ekvivalentida) Yangi energetika va sanoat texnologiyalarini rivojlantirish tashkiloti (Yaponiya) mablag‘lari hisobidan amalga oshiril.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori asosida ishlab chiqilgan dasturga ko‘ra, Sirdaryo IESda yirik modernizatsiyalash loyihalari bajarildi. Jumladan, dasturga muvofiq, stansiyaning 2 ta energoblokida modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi. Natijada,

ularning xizmat davri 20 yilga uzaytirildi. Qolaversa, qiymati 60 mln AQSH dollariga teng ushbu loyiha tufayli birgina 2015-yilda 120 ming tonnadan ortiq yoqilg'i iqtisod qilinib, bu boradagi sarf 10 foizga kamaytirildi. Mazkur modernizatsiyalashdan so'ng 1-qozon – turbina sexini boshqarish va nazorat qilish avtomatik tizimga o'tkazildi[19].

Mazkur loyihalar sababli korxonada qo'shimcha 50 MVt elektr energiyasi hosil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, bir kVt soat elektr ishlab chiqarishga sarflanadigan shartli yonilg'i miqdori qisqarib, bu boradagi sarf-xarajatlar miqdori sezilarli darajada kamaydi. Natijada, Respublikada ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 30 %dan ortig'i, ya'ni yiliga o'rtacha 15 mlrd kVt soat elektr quvvati mazkur stansiyada hosil qilinib, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga yetkazib berildi.

Shuningdek, birgina Yangi Angren IESni modernizatsiya qilish uchun "O'zbekenergo" DAK, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va Xitoy Eksimbankining kredit mablag'lari jalb etildi. Mazkur loyihaga "O'zbekenergo" DAK tomonidan 47,13 mln dollar, O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 52,77 mln dollar ajratildi. Xitoy Eksimbanki tomonidan 113,84 mln dollar jalb qilindi. Ular besh yillik imtiyozli davr bilan 20 yil muddatga berilgan va "O'zsanoatqurilishbank" orqali qayta moliyalashtirilgan. Qarz oluvchi va jalb qilingan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi uchun mas'ul ijro etuvchi organ "O'zbekenergo" DAK bo'lib, u kreditni qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni ham qoplagan[20].

Modernizatsiya natijasida elektr stansiyada ko'mir yoqish 20 foizdan 45 foizga oshdi (1 mln tonnaga).

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasidagi iste'molchilarni ishonchli va sifatli issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlash hamda ishlab chiqarish uchun energiya resurslari birligi tannarxini pasaytirish va IESning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadida 2009-2012-yillarda Navoiy issiqlik elektr stansiyasida Yaponiyaning "Mitsubishi" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 MVt quvvatga teng bo'lgan shartli yoqilg'i iste'molini 1,8 marta kamaytirib, 400 mln

kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish imkonini beradigan bug‘-gaz qurilmasi ishga tushirildi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi yiliga 2 mlrd 800 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini berdi[21]. Loyiha O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 351 mln dollar miqdoridagi krediti, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyatining 70,2 mln dollari o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston banklaridan 46,8 mln dollar kreditlar hisobidan moliyalashtirildi.

Bu boradagi ishlar ham O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2009-yil 12 martdagi “2009-2014-yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida” №PK-1072-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida respublikaning birgina qishloq joylarida 1,2 ming km elektr tarmoqlari bunyod etildi[22].

“2009-2015-yillarda elektroenergetika tarmog‘ini rivojlantirish va zamonaviylashtirish investitsiya dasturi” Kioto Protokolining rivojlanish tizimi sifatida o‘zgartirildi. Dasturda bug‘ va gaz turbinali generatorlarni, ayniqsa Toshkent, Navoiy va Talimarjonda joylashgan issiqlik elektr stansiyalarida joriy etish aytilgan. Dasturda yana gidroelektrostansiyalar qurilishi yoki rekonstruksiyasiga ham e’tibor berilib, ushbu loyihalardan o‘n beshtasi respublika birinchi Prezidentining 2009-yilgi “2009-2014-yillarda texnik zamonaviylashtirish va korxonalarni qayta jihozlash to‘g‘risida”gi farmonida tavsiflangan dasturda ko‘zda tutilgan[23].

2014-yilda Investitsiya dasturi bo‘yicha 760,5 mln AQSH dollar o‘zlashtirildi va 9 ta investitsiya ob’ektlarining qurilishi tugallandi. Investitsiya dasturi doirasida 123,2 km uzunlikdagi “Sirdaryo IES – Yangi-Angren IES” yuqori voltli liniya loyihasining qurilishi hamda Chorvoq GESining ikkinchi gidroagregati va Sirdaryo GESning ikkita energoblokida modernizatsiyalashtirish ishlari yakunlandi[24].

Shuningdek, respublika hukumati tomonidan 2009-2015-yillarda energetika sanoatini rivojlantirish dasturiga muvofiq yangi energetika quvvatlarini, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish borasida katta hajmdagi ishlar bajarildi.

2015-yilda “O‘zbekenergo” Taxiotosh IESda quvvati 230-280 MVt bo‘lgan ikkita kombinatsiyalashgan gaz zavodini qurish”[25] loyihasini amalga oshirish uchun tender e‘lon qildi. Ularning natijalariga ko‘ra, 2016-yil 23-dekabrda “O‘zbekenergo” AJ “Nyundai Engineering Co. Ltd.” va “Nyundai Engineering & Construction Co. Ltd.” kompaniyalari bilan shartnoma imzolagan va modernizatsiya uchun 103,96 mln yevro va 328,1 mln AQSH dollar ajratildi[26].

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2015-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilga mo‘ljallangan Investitsiya Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2458 sonli qaroriga muvofiq yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va amaldagilarini modernizatsiyalash va qayta qurish bo‘yicha “O‘zbekenergo” AJ tomonidan 23 ta yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi.

2016-yilga mo‘ljallangan 5 ta investitsion ob‘ektlar bo‘yicha ishlar yakunlandi va ishchi komissiyalar dalolatnomalari rasmiylashtirildi.

Xususan, investitsion loyihalar doirasida Talimarjon IESda umumiy quvvati 900 MVt ga ega bo‘lgan ikkita bug‘-gaz qurilmasi va Angren IESda quvvati 150 MVtga ega bo‘lgan energoblok ishga tushirildi. “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyasining ta‘minlovchi nimstansiyalariga tashqaridan elektr quvvati yetkazib beruvchi ob‘ektlarni qurish loyihasi bo‘yicha umumiy uzunligi 23,77 km bo‘lgan 110-220 kV havo liniyasi (HL) va 200 MVA transformatori shuningdek, “Samarqand-Buxoro” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy uzunligi 20,2 kmga teng 110 kV HL ishga tushirildi.

Talimarjon, Navoiy va Taxiotosh issiqlik elektr stansiyalarida quvvati 250 MVt.dan 450 MVt.gacha bo‘lgan bug‘-gaz uskunalarini qurish loyihalari amalga oshirildi[27] hamda To‘raqo‘rg‘on tumanida umumiy quvvati 900 MVt.ga teng bo‘lgan ikkita bug‘-gaz qurilmali elektr stansiyasi bunyod etildi.

XULOSA

Sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda bir qancha muammolar ham yuzaga keldi. Xususan, energetika sohasini tartibga solish siyosatida davlat monopoliyasi saqlab qolindi va sohada bozor mexanizmlarining asosiy tamoyillarini joriy etish imkoni bo‘lmadi. Natijada, energiya samaradorligini

o'shish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish uchun iqtisodiy rag'batlarning yo'qligi, hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoit yo'qligi sababli sohani rivojlantirish va modernizatsiya qilishni davlat tomonidan moliyalashtirishning zarurati, raqobatning yo'qligi va tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishning saqlanishi kabi muammolar o'z yechimini topmadi.

Respublikada elektr energiyasi tariflarining pastligi va yirik korxonalar va mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarining aholiga ochiqqligini va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ichki energiya tariflari katta miqdorda subsidiyalanganligi hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoit yo'qligi sababli xorijiy xususiy investetsiya ajratilmadi.

“O‘zbekenergo” DAK tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishda investitsiyalar sezilarli darajada oshib, sanoatni yangilashni jadallashtirish, energiya ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha bir qancha loyihalar amalga oshirildi.

IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз — жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, малакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 92.
2. Матвеева И.Е. Электроэнергетика республики Узбекистана // matveev-igor.ru
3. ЎзМА М-37-фонд, 1-рўйхат, 866-йиғмажилд, 2-варақ.
4. Назарова Г., Халилов Х., Азимов А., Ханова И. Халқаро иқтисодий интеграция. – Тошкент: “ТАФАККУР”, 2010. – Б. 197.
5. Хамидов Ш.В. Узбекистан. Углубленный доклад по инвестиционному климату и структуре рынка в энергетическом секторе. Секретариат Энергетической Хартии, май, 2006. Uzenenergy.uzpak.uz sjsc@uzpak.uz
6. Каримов И.А. Асосий вазифамиз — ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 66.
7. <http://www.uzbekenergo>

8. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана и мира. – Ташкент: “Fan va texnologiya”, 2009. – С. 24.
9. Хошимов Ф.А., Таслимов А.Д. Энергия тежамкорлик асослари. – Тошкент: “Ворис нашриёт”, 2014. – Б. 25
10. Электроэнергетика Узбекистана. “Ўзбекэнерго”. (Краткий обзор). 2004. Финам. <https://studylib.ru>
11. Муратов Ҳ. Энергетиканинг ривожланиш истиқболлари // Халқ сўзи. 2014 йил 12 июль.
12. Алимбоев А.У., Алимов Х.О., Аҳмедов К.Х. Иссиқлик электр станциялари. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 5-6.
13. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2003, №1-2, 9-модда.
14. Электроэнергетика Узбекистана. “Ўзбекэнерго”. (Краткий обзор). 2004. Финам. <https://studylib.ru>
15. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. 2010, №2-сон, 75-модда.
16. Абдусаламов Дж. Национальный доклад по Республике Узбекистан составлен в рамках проекта Европейской экономической комиссии ООН “Повышение синергетического эффекта национальных программ стран-членов СНГ по энергоэффективности и энергосбережению для повышения их энергетической безопасности”. 2013. – С.26-27.
17. “Правда востока” газетаси. 2016 йил 25 август.
18. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2009 , №10-11, 109-модда.
19. Шерназаров А. Иқтисодий юксалишнинг мустаҳкам таянчи // Халқ сўзи”. 2016 йил 5 март.
20. <http://www.rosinvest.com>
21. Каримов И.А. Мамлакатимизни янада обод этиш ва модернизация қилишни қатъият билан давом эттириш йўлида. Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2013. – Б. 169-170.

22. Халқ сўзи. 2014 йил, 3 июль

23. Атроф-муҳит ҳолатининг шарҳи. БМТ. – Нью Йорк ва Женева, 2010. – Б. 143.

24. Абдусаламов Дж. Национальный доклад по Республике Узбекистан составлен в рамках проекта Европейской экономической комиссии ООН “Повышение синергетического эффекта национальных программ стран-членов СНГ по энергоэффективности и энергосбережению для повышения их энергетической безопасности”. 2013. – С.32-33.

25. Приглашение к конкурсным торгам по найму генерального подрядчика по проекту “Строительство двух ПГУ мощностью 230-280 МВт на Тахиаташской ТЭС”. АО «Узбекэнерго» (2 декабря 2015). Дата обращения: 22 июня 2018.

26. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по реализации инвестиционного проекта “Строительство двух парогазовых установок мощностью по 230–280 МВт на Тахиаташской ТЭС” от 11 сентября 2017 г. № ПП-3264.

27. Исакулов Д. Энергетика мустақиллиги иқтисодиётни жадал тараққий топтириш ва аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш гаровидир // Халқ сўзи”. 2016 йил 18 август.